



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	
ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI.....	60
Xamdanova Gavxar Absamatovna	
SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI.....	65
Saloxiddinova Sitora Baxodir qizi	
IJTIMOIIY OBYEKTlarda QURILISH XIZMATLARINI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOIYILLARI.....	68
Gapparov Azim Qayumovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQARISH FAOLIYATIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....	72
Zaripov Shoxboz Alijon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	75
Kolmatova Asila Menglimurod qizi	
РОЛЬ GREEN BONDS В МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	81
Н.Т. Бекназарова	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK BOSHQARUV VA AUDIT.....	86
Shaymatova Nargiza Ashurovna	
NORASMIY IQTISODIYOTNING MAVJUDLIGINING NAZARIY MASALALARI VA UNI ANIQLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	93
Alimardonov G'ayratjon Nuraliyevich	
DIGITAL TWIN-BASED DECISION SUPPORT FOR COST OPTIMIZATION AND RISK MANAGEMENT IN INFRASTRUCTURE SYSTEMS.....	99
Nelyufar Umarovna Dadabayeva	
PAXTA BO'LAKCHASINING OG'MA TO'RLI YUZA SIRTI BO'YLAB HAVO OQIMI TA'SIRIDAGI HARAKATINING MATEMATIK MODELI.....	108
Karimov Abdusamat	
АДАПТИВНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ К ВНЕШНИМ РИСКАМ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИМ ТЕНДЕНЦИЯМ.....	115
Бабаджанов Шухрат Атахмович	
“TIBBIYOT BOZORINING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI UCHUN MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI”.....	120
Abdumalikov Shoxjahon Jaloliddin o'g'li	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BANDLIKKA TA'SIRI.....	124
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	



XORAZM VILOYATIDA ETNOGRAFIK TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING AHAMIYATI	129
Ro'zimatova Shaxlo Baltaboy qizi	
THE FEAR OF MISSING OUT (FOMO) EFFECT IN ADVERTISING AND ITS NEUROPSYCHOLOGICAL IMPACT ON IMPULSE BUYING	134
Negmatov Nodir Nozimovich	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA TENDENSIYALARI TAHLILI.....	139
Aytiyeva Sevara	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA O'ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI.....	149
Abdullayeva Matluba Nematovna, Nuriddinov Kamoliddin Faxriddin o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	155
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
POPULATION IMPACT ON CONSUMER CULTURE AND NATIONAL ECONOMIC GROWTH.....	160
Rustamov Sherov Oblokulovich	
AVTOTRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA ULARNI YAXSHILASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	164
Laylo Akbarova, Komolov Adxam Dilshod o'g'li	
MODELING THE DIFFUSION OF DIGITAL BANKING ADOPTION IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM TBC BANK USING THE BASS DIFFUSION MODEL AND A HYBRID REGRESSION APPROACH	169
Feruza Nabieva	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK XARAJATLARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH VA BAHOLASH	176
Rabbimov Elbek Abdulloyevich, G'afforov Ilhom Ilyosjonovich, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
O'ZBEKISTONNING YANGI BOZORLARGA CHIQISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING INTEGRALLASHGAN MODELI.....	183
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-KONSEPTUAL ASOSLANISHI.....	188
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISH VA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	194
Turg'unov Nodirbek Muminjanovich	
SANOAT KORXONALARI TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI	198
Jabborov Elbek Erkin o'g'li	
SOLIQ STAVKALARINI TABAQALASHTIRISHNING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	202
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
MINTAQALAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISHNI TA'MINLASHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	208
Egamov Temur Muzaffarovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLYAVIY RAG'BATLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	213
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA OBYEKTIV ZARURLIGI.....	217
Achilova Firuza Kurbanovna	
INVESTITSIYALARNI JALB ETISH ORQALI MAXSUS IQTISODIY ZONALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	222
Ergashev Olim	



KICHIK BIZNES INNOVATSION FAOLIYATINING RIVOJLANISHIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR	227
Amirov Zubaydulla Toir o'g'li	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	233
Isakjanova Saboxat Muhamedovna	
KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA AKSIYADORLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	238
Xakimov Uchkun Xamitovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MILLIY MAKROIQTISODIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	242
Mardanova Ra'no Isakovna	
XUSUSIY VA DAVLAT SHIFOXONALARI UCHUN RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI QIYOSIY TAHLIL	246
Yakubov Temur G'anibekovich	
RAQAMLI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA RESURS SAMARADORLIGI VA IQTISODIY NATIJADORLIK MODELI	250
Ziyodullayev Qahramon	
"MILLIY TURIZM SITUATSION-MONITORING MARKAZI" VA "YASHIL TUROPERATORLAR" FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI	254
Toshev Akmal Salimovich	
RISK-MENEJMENT VA MOLIYAVIY BARQARORLIK O'ZARO BOG'LIQLIGINING KONSEPTUAL MODELINI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI	261
Madaminov Bekzod Allayarovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT: BAHOLASH METODOLOGIYASI, DINAMIKASI VA QISQARTIRISH ISTIQBOLLARI (1996 – 2026-YILLAR TAHLILI)	266
Djumanova Rano Fayzullayevna	
OLIY TA'LIM SIFATINI BAHOLASHDA MAJMUALI DIAGNOSTIK MODELNING AMAL QILISH XUSUSIYATLARI	272
Xo'jaxonov Ma'rufxon Xamidxonovich	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	278
Vafiyev Raxim Xalimjonovich	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	282
Nigora Nurmatova	
BANK SEKTORINING INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISHDAGI STRATEGIK O'RNI	287
Abdumavlonov Abdumutal Abdumajid o'g'li	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA UZOQ MUDDATLI MOLIYAVIY INVESTITSIYALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	291
Allabergenova Nilufar Shermetovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA TA'MINOTLI YIRIK KREDITLAR ASOSIDA QIMMATLI QOG'OZLAR CHIQRISH ORQALI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI	298
Ahmedov Akbarali Sultonmurodovich	
"MINTAQA SANOATI SALOHİYATIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI"	306
Abdinazarov Xusan Shaymanovich	
BUDJET TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA MAJBURIYATLAR: MAZMUNI, TURLARI VA TARKIBI	309
Jabbarova Charos Aminovna	
ATROF-MUHIT VA EKOLOGIK IQTISODIYOT: TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RESURLARDAN OQILONA FOYDALANISH VA UNING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH	316
Alikulov Samar Abdirashidovich	
O'ZBEKISTON TURIZM INDUSTRIYASI RIVOJLANISHIDA FORSAYT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH	322
Turdibekov Xasan Ibragimovich	
АНАЛИЗ ДЕБИТОРСКОЙ И КРЕДИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ ХОЗЯЙСТВУЮЩЕГО СУБЪЕКТА	329
Камолова Феруза Кахрамоновна	



TASHQI QARZNING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI: QARZ BARQARORLIGINI BAHOLASH MODELLARI ASOSIDA O'ZBEKISTON MISOLIDA TAHLIL	333
Olloyorova Kumushoy Ahmad qizi, Tashmuxamedova Yayra Atxamovna	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQLARNI TARTIBGA SOLISHNING TAHLILI	339
Kudiyarov Kishibay Ramatullaevich	
KORXONALAR FAOLIYATINING IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XORIJ TAJRIBASI	343
Iminova Nargizaxon Akramovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI BOSHQARISHDA RISKLAR VA RISK-MENEJMENTNING O'RNI	350
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
BUDJET TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA KAMCHILIKLAR	354
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Xasanboyeva Muyassar Ubaydullayevna	
XUSUSIY KORXONALARDA KADRLAR MENEJMENTI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	358
Alimova Dildora Damirovna	
BANK TRANSFORMATSIYASI TUSHUNCHASI VA UNING MENEJMENTDAGI O'RNI	363
Rajabov Oybek Panjievich	



UDK 336.77:658.15

BANK TRANSFORMATSIYASI TUSHUNCHASI VA UNING MENEJMENTDAGI O'RNI

Rajabov Oybek Panjievich

“Ipoteka-bank” aksiyadorlik tijorat ipoteka banki
Qashqadaryo viloyat filiali Sotuv ofis rahbari

ORCID: [0009-0006-1739-7720](https://orcid.org/0009-0006-1739-7720)

Email: rajabovo527@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada bank transformatsiyasi tushunchasining nazariy asoslari, uning zamonaviy bank menejmentidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, bank faoliyatini transformatsiya qilish jarayonlarining asosiy yo'nalishlari, strategik boshqaruvga ta'siri hamda raqamli texnologiyalar sharoitida bank menejmentining yangi yondashuvlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida bank transformatsiyasi menejment samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: bank transformatsiyasi, bank menejmenti, strategik boshqaruv, raqamli bank, innovatsion rivojlanish, moliyaviy xizmatlar.

Abstract. This article examines the theoretical foundations of the concept of bank transformation and its role and significance in modern bank management. In addition, the main directions of bank activity transformation, its impact on strategic management, and new approaches to bank management in the context of digital technologies are analyzed. The study concludes that bank transformation is a key factor enhancing management efficiency.

Key words: bank transformation, bank management, strategic management, digital banking, innovative development, financial services.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы концепции трансформации банков и её роль и значение в современном банковском менеджменте. Также анализируются основные направления трансформации деятельности банков, её влияние на стратегическое управление и новые подходы к банковскому менеджменту в условиях цифровых технологий. Результаты исследования показывают, что трансформация банков является важным фактором, повышающим эффективность управления.

Ключевые слова: трансформация банков, банковский менеджмент, стратегическое управление, цифровой банк, инновационное развитие, финансовые услуги.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi bank-moliya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamonaviy bozor mexanizmlari asosida rivojlantirish hamda xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvini jadallashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, bank faoliyatini transformatsiya qilish, boshqaruv tizimini takomillashtirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Mazkur yo'nalishdagi islohotlarning normativ-huquqiy asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son¹ Farmoni alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu farmonda moliya-bank tizimini transformatsiya qilish, bank boshqaruvini zamonaviy menejment tamoyillari asosida tashkil etish hamda raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Farmonda bank tizimini isloh qilish doirasida banklar faoliyatida korporativ boshqaruvni kuchaytirish, strategik rejalashtirish va risk-menejment tizimini takomillashtirish, raqamli bank xizmatlari va innovatsion texnologiyalarni joriy etish, bank xizmatlarining ochiqligi va samaradorligini oshirish kabi ustuvor vazifalar aniq ko'rsatib o'tilgan.

Mazkur vazifalar bank transformatsiyasining faqat texnologik jihatini emas, balki boshqaruv (menejment) tizimini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Chunki bank faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>



menejment qarorlarining sifatiga, strategik boshqaruv mexanizmlarining to'g'ri tanlanishiga va inson kapitalidan oqilona foydalanishga bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, bank transformatsiyasi jarayonlarini menejment fanining asosiy kategoriyalari — strategik boshqaruv, tashkiliy rivojlanish, innovatsion menejment va risklarni boshqarish bilan uzviy bog'liq holda o'rganish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank transformatsiyasi zamonaviy moliya tizimida banklarning raqobatbardoshligini saqlab qolish, bozor sharoitlariga moslashuvi va uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan kompleks jarayon sifatida talqin qilinadi. Ushbu tushuncha nafaqat texnologik yangilanishlarni, balki tashkiliy tuzilma, strategik menejment, korporativ madaniyat hamda biznes-modelni tubdan qayta ko'rib chiqishni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli bank transformatsiyasi masalasi menejment nazariyasi va bank amaliyotining muhim kesishuv nuqtalaridan biri sifatida ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan.

Bank transformatsiyasining nazariy asoslari avvalo strategik menejment konsepsiyalariga tayanadi. Michael E. Porter banklarning raqobat ustunligini shakllantirish jarayonida ichki imkoniyatlar va tashqi muhit omillarini uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlab, strategik transformatsiya barqaror ustunlikning asosiy manbai ekanini asoslab bergan. Ushbu yondashuv banklar faoliyatida transformatsiyani faqat texnologik yangilanish emas, balki strategik qayta pozitsiyalash jarayoni sifatida ko'rishga imkon beradi.

Raqamli transformatsiya bank menejmentida alohida yo'nalish sifatida shakllangan. Chris Skinner o'z tadqiqotlarida bank tizimining raqamli muhitga moslashuvi mijozlarga yo'naltirilganlik, tezkorlik va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruvni talab qilishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, transformatsiya bank ichki jarayonlarini avtomatlashtirish bilan cheklanib qolmasdan, qaror qabul qilish tizimini ham tubdan o'zgartirishi lozim. Bu holat bank menejerlari uchun strategik fikrlash va innovatsion boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Bank transformatsiyasining menejmentga ta'siri moliyaviy barqarorlik va risklarni boshqarish bilan chambarchas bog'liq. Frederic S. Mishkin bank tizimidagi strukturaviy o'zgarishlar kredit risklari, likvidlik va kapital yetarililigiga bevosita ta'sir ko'rsatishini asoslab beradi. U bank transformatsiyasi jarayonida menejment qarorlarining sifati moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi omil ekanini qayd etadi. Shu nuqtayi nazardan, transformatsiya samaradorligi ko'p jihatdan menejment tizimining moslashuvchanligi va nazorat mexanizmlariga bog'liq.

Tashkiliy transformatsiya masalalari ham bank menejmenti tadqiqotlarida muhim o'rin tutadi. Henry Mintzberg tashkilotlarda strategiya va tuzilma o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlamasdan turib, har qanday transformatsiya kutilgan natijani bermasligini ta'kidlaydi. Banklarda yangi biznes-modellarni joriy etish jarayonida menejment vertikal va gorizontal boshqaruv aloqalarini qayta ko'rib chiqishi zarur. Aks holda, texnologik transformatsiya tashkiliy inersiya tufayli sekinlashadi yoki samarasiz bo'lib qoladi.

So'nggi yillarda bank transformatsiyasi innovatsion menejment va institutsional o'zgarishlar bilan ham bog'lab o'rganilmoqda. Joseph A. Schumpeter ilgari surgan innovatsiyalar orqali "ijodiy vayronkorlik" konsepsiyasi bank sektorida ham dolzarb bo'lib, eski biznes-modellarni yangilari bilan almashtirish transformatsiyaning muhim mexanizmi sifatida qaraladi. Bu yondashuv bank menejmentidan an'anaviy operatsion boshqaruvdan tashqari, innovatsion yetakchilikni ham talab qiladi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili bank transformatsiyasi ko'p qirrali jarayon bo'lib, u strategik, tashkiliy, texnologik va institutsional o'zgarishlarning o'zaro bog'liqligiga asoslanishini ko'rsatadi. Ilmiy tadqiqotlar bank transformatsiyasining muvaffaqiyati bevosita menejment sifati, strategik qarorlar va inson kapitalini boshqarish darajasiga bog'liq ekanini tasdiqlaydi. Shu bois bank transformatsiyasi masalasi menejment nazariyasi va bank amaliyotining uzviy integratsiyasini talab etuvchi muhim ilmiy yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida mazkur tadqiqot bank transformatsiyasi tushunchasi va uning zamonaviy bank menejmentidagi o'rnini aniqlash hamda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash usuli, maxsus va empirik usullaridan kompleks tarzda foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida bank transformatsiyasi jarayonlarining menejment tizimiga ta'siri kompleks tahlil qilindi. Tahlillar O'zbekiston Respublikasi bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, banklar faoliyatining strategik ko'rsatkichlari hamda raqamli boshqaruv elementlarining joriy etilish darajasiga asoslandi. Birinchi navbatda, bank transformatsiyasining tashkiliy-boshqaruv jihatlari tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, banklarda



korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish transformatsiya jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Xususan, banklarda kuzatuv kengashlari vakolatlarining kengaytirilishi, ichki nazorat va risk-menejment tizimining kuchaytirilishi boshqaruv qarorlarining sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, transformatsiya jarayonlari strategik rejalashtirish tizimining takomillashuviga olib kelib, bank menejmentining uzoq muddatli maqsadlarga yo'naltirilishini ta'minlamoqda.

Ikkinchi bosqichda bank transformatsiyasining raqamli boshqaruvga ta'siri tahlil qilindi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bank menejmentida operatsion jarayonlarning avtomatlashtirilishini ta'minlab, boshqaruv xarajatlarini kamaytirishga imkon bermoqda. Masalan, masofaviy bank xizmatlari va avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining joriy etilishi boshqaruv qarorlarini qabul qilish tezligini oshirdi va menejerlar uchun real vaqt rejimida tahliliy ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini yaratdi.

Uchinchi yo'nalishda bank transformatsiyasining inson resurslari menejmentiga ta'siri o'rganildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, transformatsiya jarayonlari bank xodimlarining kasbiy kompetensiyalariga bo'lgan talabni oshirmoqda. Raqamli va innovatsion texnologiyalar bilan ishlay oladigan menejerlar va mutaxassislarining ahamiyati ortib bormoqda. Shu bilan birga, banklarda motivatsiya tizimining takomillashuvi va kadrlarni qayta tayyorlash dasturlarining joriy etilishi transformatsiya jarayonlarining samaradorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

To'rtinchi bosqichda bank transformatsiyasining strategik samaradorlikka ta'siri baholandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, transformatsiya jarayonlarini tizimli boshqarayotgan banklarda moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari, mijozlar bazasi va xizmatlar sifati sezilarli darajada yaxshilanmoqda. Ayniqsa, mijozlarga yo'naltirilgan boshqaruv modeliga o'tish banklarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynamoqda (1-jadval).

1-jadval. Bank transformatsiyasining menejment samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy yo'nalishlari²

№	Transformatsiya yo'nalishlari	Menejmentga ta'siri	Natijaviy samaradorlik
1	Korporativ boshqaruvni takomillashtirish	Strategik qarorlar sifatini oshiradi	Boshqaruv shaffofligi va barqarorlik kuchayadi
2	Raqamli texnologiyalarni joriy etish	Operatsion boshqaruvni avtomatlashtiradi	Qaror qabul qilish tezlashadi
3	Biznes jarayonlarni optimallashtirish	Boshqaruv xarajatlarini kamaytiradi	Operatsion samaradorlik oshadi
4	Inson resurslari menejmentini rivojlantirish	Xodimlar malakasi va motivatsiyasini oshiradi	Innovatsion salohiyat kuchayadi
5	Risk-menejment tizimini takomillashtirish	Xatarlarni aniqlash va boshqarishni yaxshilaydi	Moliyaviy barqarorlik ta'minlanadi

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bank transformatsiyasi jarayonlari menejment tizimining barcha asosiy elementlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, korporativ boshqaruvni takomillashtirish strategik qarorlar sifatini oshirishga xizmat qilsa, raqamli texnologiyalarni joriy etish operatsion boshqaruv jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtiradi. Shuningdek, inson resurslari menejmentini rivojlantirish bank transformatsiyasining uzoq muddatli samaradorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari bank transformatsiyasi zamonaviy bank menejmentining ajralmas tarkibiy qismi ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida bank transformatsiyasi tushunchasining nazariy asoslari tahlil qilinib, uning bank faoliyatini strategik boshqarish, tashkiliy tuzilmani takomillashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirishdagi o'rni ilmiy jihatdan asoslab berildi. Tahlillar natijasida bank transformatsiyasi jarayonlari bank menejmentida strategik rejalashtirish tizimini mustahkamlashi, boshqaruv qarorlarini qabul qilish tezligi va sifatini oshirishi hamda raqamli texnologiyalar asosida boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini berishi aniqlandi. Ayniqsa, korporativ boshqaruv va risk-menejment tizimlarining takomillashuvi banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi isbotlandi.

Xulosa qilib aytganda, bank transformatsiyasi jarayonlarini menejment nuqtayi nazaridan ilmiy asosda tashkil etish bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlash, raqobatbardoshligini oshirish va moliyaviy xizmatlar sifatini yaxshilash imkonini beradi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan xulosalar va takliflar bank menejmentini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ularni tijorat banklari faoliyatida qo'llash maqsadga muvofiqdir.

2 Muallif ishlanmasi

**Faydalanilgan adabiyot ro'yxati:**

1. Porter M.E. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. New York: Free Press, 1980.
2. Skinner C. Digital Bank: Strategies to Launch or Become a Digital Bank. Singapore: Marshall Cavendish Business, 2014.
3. Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. New York: Pearson, 2022.
4. Mintzberg H. The Structuring of Organizations. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1979.
5. Schumpeter J.A. Capitalism, Socialism and Democracy. New York: Harper & Brothers, 1942.
6. G'oziev, G'., Xudoyberganov, B. Bank Menejmenti. Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
7. Shohazamiyov, Sh.Sh. Bank Tizimida Transformatsiya va Innovatsiyalar. Toshkent: Ilm-Ziyo, 2022.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>